

ABDURAUF FITRATNING “AHMAD YASSAVIY” ASARI VA UNING TALQINI

Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq falsafasi va madaniyati kafedras

4-kurs talabasi

oqilovahrorjon@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola taniqli o‘zbek olimi, jadidchilikning yetakchi vakili va mutafakkiri Abdurauf Fitratning “Ahmad Yassaviy” asari va uning tahliliga qaratilgan.*

Kirish so‘z. Abdurauf Fitrat, Buxoro amirligi, kritika, jadidchilik va jadidlar, birinchi o‘zbek professori, “Ahmad Yassaviy”, Yassaviya, tasavvuf, hikmatlar, Yassaviy maktabi

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda savdogar oilasida tavallud topgan. Fitrat o‘z davridagi tuzumga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qaradi. Joriy hukumatning xato va kamchiliklarini ochiq bayon qildi. “Abdurauf Fitratning “Sayha” to‘plami 1911-yilda Istanbulda nashr etildi”¹. Abdurauf Fitratning “Munozara” asari o‘z davri uchun bir momaqaldiroqday aks sado berdi. Fitratning ko‘plab asarlari qatori uning “Ahmad Yassaviy” asari ham o‘rganiladigan muhim material sifatida namoyon bo‘ladi. “Ahmad Yassaviy” asarining asosiy mavzusi bu Ahmad Yassaviy shaxsiyati hisoblanadi. Xoja Ahmad Yassaviy o‘z faoliyati bo‘lmish so‘fiylikda yangi bir tariqat yassaviya tariqatiga asos soldi. Bu tariqatning mohiyati Alloh irodasiga boricha bo‘ysunish hisoblanadi. Bu tariqatda asosiy urg‘u riyozat orqali ichki poklanishga erishish, zohidlik bilan taqvo yo‘lini mahkam tutishga qaratilgan. Yassaviya tariqatining asosiy shiori - *shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘lmaydi*. Bu ta’limot avvalo Qur’oni Karimga keyin hadisi shariflarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Yassaviya tariqatining

¹ [IDEA OF PATRIOTISM IN THE WORK OF ABDURAUF FITRAT \(cyberleninka.ru\)](http://IDEA OF PATRIOTISM IN THE WORK OF ABDURAUF FITRAT (cyberleninka.ru))

asosiy mazmuni unga rioya qilish mezonlari “Devoni hikmat” ya’ni “Hikmatlar devoni” orqali belgilanadi. Ushbu asarning muallifi tariqat yo‘lboshchisi Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Abdurauf Fitratning “Ahmad Yassaviy” asari boshqa asarlaridan farq qiladi. Ya’ni Abdurauf Fitratning bu asarida Ahmad Yassaviy to‘g‘risida turli rakurslardan turlicha yondashuv va ma’lumotlar keltiradi. “Ahmad Yassaviy” asarida Abdurauf Fitrat uni ko‘p tomonlama o‘rgangani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fitratning o‘zi ham bir ma’noda qomusiy olim bo‘lgani holda Ahhmad Yassaviy shaxsiyatini diniy-mistik, adabiy ta’siri, yassaviylik va uning muhiti, hikmatlari, tasavvufning ta’rifi borasida so‘z yuritadi. Abdurauf Fitratning “Ahmad Yassaviy” asari “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 1927-yil 6-sonida e’lon qilingan. Keyinchalik bir necha marta ana shu manba bo‘yicha qayta nashr etilgan. Abdurauf Fitrat bu asari orqali o‘zidan oldin Ahmad Yassaviy va uning shaxsiyatiga doir yozilgan asarlar va maqolalarda bir qancha hissiyotli, sun’iy shishirilgan va bo‘rtirilgan ijodiy ishlar sifatida yondashuv beradi. Abdurauf Fitrat o‘rganishicha Ahmad Yassaviyning avvalgi ustozি Arslonbob, uning vafotidan keyingi tahsili esa tasavvuf olamidan mashhur Yusuf Hamadoniy bo‘lgan. Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G‘ijduvoniyalar manbai bir ikki irmoq sifatida izoh berilgan. Ahmad Yassaviy haqida keltirilgan noyob ma’lumotlardan biri u zotning 63 yoshlaridan keyin yer ostidan bir chillaxona qazdirib, umrining davomini o‘sha yerda o‘tkazgani qayd etilgan. Ahmad Yassaviy adabiy faoliyatining gultoji bo‘lmish “Devoni hikmat” asari haqida Fitrat uning “Qutadg‘u bilig”dan bir asr keyin yaratilgani, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” haqiqatlar tuhfasi asari bilan asrdosh ekanini ta’kidlash bilan birga, X-XI asrlarda turkiy tildagi ijod namunalarining adadi kamligi bilan ham favqulodda nodir feonomenal asar ekanini yozadi. “Ahmad Yassaviy” asarida Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy ziyosidan taralgan hikmatlar va hikmatnavislik u kishining izidan borgan Mansur ota, Abdumalik ota va boshqa shu kabi yigirmaga yaqin tasavvuf shayxlarining ijodida ham ko‘zga tashlanishi haqida ma’lumot beradi. Biroq bu hikmatlardan faqat Hakim Sulaymon otaning hikmatlari qolganini taassuf bilan qayd etadi. Abdurauf Fitrat “Devoni hikmat”ning parchalari o‘z davrida Istanbul, Toshkent, Qozon kabi shaharlarda

bosmadan chiqqani haqida ham ma'lumot beradi. Abdurauf Fitrat keyingi o'rnlarda Ahmad Yassaviy sha'niga bir ma'noda tanqidlar yog'dirgan. Ahmad Yassaviy ijodini murid yig'ish uchun yozilgan misralar deya baholaydi. Biroq, shu o'rinda Fitrat o'zi aytadiki, Ahmad Yassaviy har qanday zolimlarni qoralab, oddiy xalq tomonida turadi. Bu esa soxtakashlik emas, aksincha, jonini xatarga qo'yib qilingan xitoblar edi. Lekin, Fitrat bu asarni yaratgan davr bu jihatdan Ahmad Yassaviydek zotga ilmiy insof bilan yondashish imkonini bermas edi.

Xulosa

Abdurauf Fitrat "Ahmad Yassaviy" asari bilan adabiyotga, tarixga ba'zi noyob ilmiy manbalarni taqdim qildi. "Ahmad Yassaviy" hayoti va ijodi, uning faoliyati va falsafasini yoritishga intildi. Biroq, bu to'la-to'kis oxiriga yetmadi. Ahmad Yassaviy dahosi hali ko'p o'rganiladigan, qancha olsa shuncha ko'payadigan donishmandlik namunasidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. T.:Ma'naiyat-2000
2. Bahromjon o'g'li O. A. ABDURAUF FITRATNING "O'GUT" SHE'RI VA UNING YOSHLARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 23. – №. 8. – С. 131-134.
3. Bahromjon o'g'li O. A. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo'lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – Т. 45. – №. 6. – С. 11-16.
4. Bahromjon o'g'li O. A. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo'lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – Т. 45. – №. 6. – С. 11-16.